

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Otaqulova Gulmira Bekmirzayevna**

*Jizzax viloyati Do'stlik tumani MTB tasarrufidagi 13-son DMTT direktori*

**Annotatsiya:** *O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan ta'lism tizimining barcha bosqichlarida keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni boshlandi. Uzluksiz ta'lism tizimining barcha bo'g'inlarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan, ta'lism tizimining eng quyi bo'g'ini maktabgacha ta'lism tizimida ham qator o'zgarishlar yuz berdi. Maqolada maktabgacha ta'lism muassasalarida ta'lism jarayonini tashkil etishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish maqsadida uni bolalarning individualligiga yo'naltirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lism; metodologiya; samaradorlik; mashg'ulot; ta'lism sifati; innovatsiya; o'qituvchi.*

Ma'lumki, maktabgacha ta'lism tizimi uzluksiz ta'lism tizimining boshlang'ich, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassislar va o'qituvchilarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson barcha ma'lumotlar va ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshga to'lgunga qadar oladi. Mana shu faktning o'zi, bolalarimizning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun maktabgacha ta'lism tashkilotidagi tarbiya va ta'lism qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktabgacha ta'lism muassasalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ijobjiy ijtimoiylashtirish, ularning har tomonlama shaxsiy, ma'naviy-axloqiy va bilimni rivojlanтирish, maktabgacha yoshdagi tegishli faoliyat turlari asosida ijodiy qobiliyat va tashabbuskor xulq-atvor profilini shakllantirish, yosh qiziqishlari sohasida kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish kabi shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi. Ta'lism sohasidagi o'zgarishlar maktabgacha ta'lism muassasalari tarbiyachipedagoglar va rahbarlariga bo'lgan talabni oshirish zarurligini belgilaydi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari va vositalani aniqlash va ulardan foydalanish hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan holda yondashish zarurligini ilgari suradi. Maktabgacha ta'lism muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyati boshqa ta'lism muassasalarini boshqarish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lism jarayonini takomillashtirish muammosining yechim yo'llaridan biri, eng avvalo, o'qitish va tarbiyalashning innovasion metodlarini amaliyatga joriy qilish – ta'lism jarayoniga tarbiyalanuvchi shaxsi va individualligiga yo'naltirilgan o'qitishning innovasion texnologiyalarini ta'lism-tarbiya jarayonida qo'llanilishidir. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni interaktiv didaktik o'yinlar va materiallar asosida o'qitish – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lismni tashkil etish imkonini beradi. Bunday o'quv mashg'ulotlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib, o'yin davomida ortiqcha zo'riqishlarsiz mantiqiy hamda ijodiy fikrlash rivojlanadi, ijtimoiy faollik va axloq me'yorlariga rioxha qilish ko'nikmalari tarbiyalanadi, tabiiy va ijtimoiy muhit to'g'risidagi tasavvurlari tartibga solinadi va tushunchalarini to'g'ri shakllanishi ta'minlanadi. Buning uchun tarbiyachi maktabgacha

yoshdagi bolalarni o'qitishda ularning o'zlari mustaqil ravishda emas, balki kattalar yordamida va rahbarligida nima qila olishlariga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Shubhasizki, innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdarligini oshiradi, bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bolalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida pedagog faoliyati va bola faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko`rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan maktabgacha yoshda o`qituvchining mahorati, uni innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangiyangi yo`l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo`lajak maktabgacha ta'lim yo`nalishi o`qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo`yilgan talablardan biridir. Chunki innovatsion pedagogik texnologiyalar, birinchidan, bolalarni bilim, ko`nikma va malakalarini oson va qiziqib o`rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o`qituvchining ham professional o`sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Mashg`ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari va yo`nalishlari ko'p bo'lib, ulardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ko'proq bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol mashg`ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalash metodi kabilar qo'llaniladi. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishga zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg'or pedagogik tehnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o'rinn tutadi.

Maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mayjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganimaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi

bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lif tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nabihev E. Maktabgacha ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. Toshkent. 2022.
2. Rasulov A. Maktabgacha ta'lif muassalarida ta'lif samaradorligini oshirish pedagogik muammo sifatida. Moskva. 2022.
3. Choriyeva S. Maktabgacha ta'lif muassalarida ta'lif samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari. Toshkent. 2022.
4. Niyazova S. Maktabgacha ta'lif muassalarida ta'lif-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish. 2022.
5. Ahmedova M. Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lifni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv. Toshkent. 2022.